

# Lola Badalova

Lola Badalova 1928-yilda Toshkent shahrida tugʻilgan.

---

## Iroda Mirzaxonovna Aliyeva

**Iroda Mirzaxonovna Aliyeva (17.12.1929 – 07.06.1989)**

Oʻzbekiston xalq artisti (1967). “A.Ostrovskiy nomidagi Toshkent teatr va rassomlik san’ati” (Oʻzbekiston davlat san’at va madaniyat instituti) institutining “Dramatik teatr va kino aktyorligi” yoʻnalishini tamomlagan (1951), Hamza (hozirgi Oʻzbek Milliy Akademik drama) teatrida ishladi (1951–1972), 1972–1989-yillar «Oʻzbekfilm» kinostudiyasida aktrisa. Nasiba («Ogʻriqtishlar»), Muqaddas («Chin muhabbat»), Shirin («Bir sevgi afsonasi»), Guzin («Turkiya haqida hikoya»), Kamola (R. Tagorning «Halokat» romani asosida yaratilgan inssenirovka – «Gang daryosining qizi»), Maryam («Jazoir, mening vatanim»), Asal («Sarvqomat dilbarim»), Nazokat («Parvona») rollarida Aliyeva muvaffaqiyat qozondi va lirik rollar ijrochisi sifatida tanildi. Yuksak texnika, mukammal sahna nutqiga ega boʻlgan Aliyeva qahramonlarining dunyoqarashi va ichki kechinmasini oʻziga xos sharqona xususiyat, nazokat bilan ifodalashga erishgan.

Kinoaktyor teatr-studiyasida Nina (A. Kason, «Yetti faryod», 1973), Enaga (A. Korneychuk, «Platon Krechet», 1974) va boshqa rollarni ijro etdi. Kinoda: «Akmal, ajdaho va malika» (1980), «Akmalning yangi sarguzashtlari» (1983) filmlarida yalmogʻiz kampir obrazini yaratdi.

---

# Melis Abzalov

Melis Abzalov (18.11.1938 – 26.10.2016)

O'zbek aktori, rejissori va ssenariychisi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist (1987).

---

## O'zDSMI Farg'ona filiali

dsmi-qf.uz

---

## O'zDSMI Nukus filiali

Nukus filiali tarixi

Xalqimiznin bektakror san'ati va madanitini yanada yuksaltirish, madanit va san'at sohasida teatr, kino, televideniye va xalq ijodiyoti yo'nalishlari bo'yicha yuqori toyifadagi akterlar va san'ashunoslik sohasida mutaxassislariniyorlash maqsad ida 2008 yil 28 aprelya O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston davlat san'at institutinning Nukus filialini tashkil etishor-tadbirlari to'g'risida»gi PQ 845-son qarori qabul qilindi.

Qarorga muvofiq, O'zbekiston davlat san'at institutining Nukus filiali tashkil etildi. Keyinchalik 2012 yil 4 iyunya «O'zbekiston davlat san'at va madanit instituti tashkil etish

to'g'risida»gi PQ-1771-son qaroriga asos O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institut nukus filiali bo'lib qayta tashkil etildi.

Filial dastlabki ochilgan yili «Saxna v ekran san'ati dramaturgiyasi» v «Drama teatri v kinoaktyorligi san'ati» ta'lim yo'nalishlarida 25 talaba qabul qilingan bo'lsa, hozirgi vaqtda 9ta ta'lim yo'nalishi bo'yicha 700 dan ortiq talaba bilim olmoqda. Bugungi kunda filiala 1ta fakultet va 5ta kafedrada 54 professor-o'qituvchi talabalarning yetuk kadr bo'lib yetilishida ta'lim-tarbiya berib kelmoqda.

Filialda O'zbekiston v Qoraqalpog'iston xalq arlari, O'zbekiston v Qoraqalpog'istonga xizmat kursgan artistlar, Qoraqalpog'iston xalq baxshilarining dars berayotganligi nazariy bilimlar va amaliyotni o'z-aro bog' liqlik holda olib borishga, shuningdek, talaba-yoshlarning o'z ta'lim yo'nalishlari bo'yicha yetuk mutaxassis bo'lib etishida katta ahamiyat kasb etadi.

2020-2021-o'quv yilida filialning kunduzgi bo'limiga yangidan «Professional ta'lim: Xalq ijodiyoti (Vokal ijrochiligi)» ta'lim yo'nalishi bilan birga, mazkur yilda filialning sirtqi bo'limi ham ochildi. Yangidan ochilgan sirtqi bo'limda «San'atshunoslik (saxna va ekran san'ati dramaturgiyasi)», «Madanat va san'at muassasalarini tashkil etish va boshqarish», «Kutubxona-axborot xizmati (kutubxonachilik v bibliografiya)» ta'lim yo'nalishlari uchunvo k talar ajratilgan bo'lib, bugungi kunda sirtqi bo'limda 100 nafar talaba bilim olmoqda. Filialda bilim olayotgan talaba-yoshlarning san'atga bo'lgan kiziquvchanligini orttirish maqsadida 2018 yili «Tumar» raqs ansambli tashkil etildi. Qisqa davr ichida «Tumar» raqs ansamblya respublikimiz miqyosida keng tanildi va bugungi kunda Mustaqillik va Navruz bayramlarida o'z konsert dasturlari bilan ishtirok etib kelmoqda.

**Batafsil Nukus filiali haqida ->**

---

# **Zakovat. May oyining 2-tur bahslari o'tkazildi**

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida Yoshlar bilan ishlash, ma'naviy va ma'rifat bo'limi hamda Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti tomonidan "Zakovat" intellektual o'yinining may oyidagi 2-tur bellashuvi o'tkazildi.

Unda to'rtta fakultetdan to'rtta jamoa ishtirok etdi.

Amaldagi g'olib – Kino, televideniye va radio san'ati fakulteti hamon yetakchilikni hech kimga bermayapti.















---

## **0‘zDSMI rektori v.b. Eldor Shermanovning Farg‘ona filialiga tashrifi**

Bugun O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti rektori v.b. Eldor Shermanov oliygohning Farg‘ona mintaqaviy filiali faoliyati bilan tanishdi.

Uchrashuvda E. Shermanov filialning fidoyi va faxriy ustozlari bo‘lgan O‘zbekiston xalq artistlari Shafokatxon Rahmatullayeva,

Yorqinoy Hotamova, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Xursanoy Umarova hamda "Teatr san'ati" kafedrasida professori Shamsiddin Usmonovlarni beminnat xizmatlari uchun katta minnatdorchilik bildirdi va esadalik sovg'alarini topshirdi.

Eldor O'ralovich muassasada talabalarning ta'lim olishlari, bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish, sport bilan shug'ullanishlari uchun yaratib berilgan sharoitlar bilan ham tanishdi.

Eldor Shermanov o'z so'zida oliygohimizning ilmiy salohiyatini yil yakuniga qadar yuqori reytinglarga olib chiqish, xalqaro hamkorlik aloqalarini yanada rivojlantirishda amaliy ishlarni tashkil qilish bo'yicha o'z tavsiyalarini berib o'tdi.



















## **0‘zDSMI rektori v.b. Eldor Shermanov talabalar bilan dars mashg‘uloti o‘tkazdi**

Shu kunlarda oliy ta‘lim muassasalari rektorlari akademik faolliklarini oshirish, shu bilan birga yoshlarga motivatsiya berish maqsadida talabalarga dars o‘tishmoqda.

Xususan, O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti rektori v.b. Eldor Shermanov “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi” mavzusida Xalq ijodiyoti fakulteti “Madaniyat va san‘at muassasalarini tashkil etish va boshqarish” ta‘lim yo‘nalishi 2-bosqich talabalariga ma‘ruza o‘qidi.

Unda bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar, shuningdek, strategiyada belgilab olingan sohaga doir vazifalar dolzarbligi hamda uning ijrosi haqida to'xtalib o'tildi.









